

ALISHER NAVOIY IJODIDA KOMIL INSON KONSEPSIYASI*Fayzullayeva Gulnoza Abdijabborovna**Sharof Rashidov nomidagi**SamDU 403-guruhan talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida komil inson konsepsiyasi tahlil qilinadi. Shoiring badiiy va axloqiy asarlarida ilgari surilgan komil inson g‘oyalari, ularning pedagogik va ma’naviy ahamiyati, shuningdek, zamonaviy tarbiya jarayonidagi o‘rni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: komil inson, Alisher Navoiy, axloqiy tarbiya, ilm-ma’rifat, tasavvuf, ma’naviy kamolot.

Kirish.

Alisher Navoiy (1441–1501) — o‘zbek adabiyotining zabardast namoyandasasi, shoir, mutafakkir va davlat arbobi sifatida Sharq adabiyoti va madaniyatida chuqur iz qoldirgan. Uning asarlarida komil inson g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Navoiy ijodida komil inson — bu nafaqat ilmli va ma’rifatli, balki axloqiy yetuk, ruhiy pok, jamiyatga foydali shaxs sifatida tasvirlanadi. Navoiy butun ijodiy merosida insonning komillikka intilishi, ma’naviy yuksalishi va barkamollik sari intilishi g‘oyasini asosiy mavzulardan biri sifatida ilgari suradi. Navoiy asarlari nafaqat badiiy go’zallik, balkiteran falsafiy ma’nolar bilan boy bo’lib, unda insonning ma’naviy dunyosi, axloqiy fazilatlari va jamiyatdagi o‘rni keng yoritilgan. Uning nazarida inson – olamning go’zalligi va uning go’zalligi va uning ziynati, jamiyatning eng muhim a’zosi hisoblanadi. Shu bois Navoiy ijodida Komil inson obrazining talqiniga alohida e’tibor qaratilgan.

1. Komil insonning asosiy fazilatlari

Navoiy nazarida komil inson quyidagi fazilatlarga ega bo‘lishi lozim:

Ilm va ma’rifat: Shoир ilmnii jaholat zulmatini yorituvchi nur deb biladi. U “Hayrat ul-abror” dostonida ilmning ahamiyatini ta’kidlab, uni insonni komillikka yetaklovchi asosiy vosita sifatida ko‘rsatadi. Alisher “Hayrat ul-abror” asarida komil inson g‘oyasi yetakchi o‘rin tutadi. Doston asosan nasihat va pand-nasihatlar asosida yozilgan bo‘lib, unda insonning ma’naviy poklanishi va kamolga yetishi uchun zarur bo‘lgan vositalar chuqur falsafiy yondashuv asosida yoritilgan. Navoiy nazarida komil inson avvalo ilmga intilishi kerak. Ilm insonni nodonlik zulmatidan olib chiqib, nurga eltuvchi asosiy qurol hisoblanadi. Dostonning bir nechta boblarida ilmning fazilati, jaholatning zararli oqibatlari haqida chuqur mulohazalar bildiriladi.

“Bilim bila topilar har mushkul,

Nodonga bemaza bo‘lur har shul.”

Axloqiy poklik: Navoiy komil insonni halollik, rostgo‘ylik, sabr-toqat, saxovat, tavoze’, adolat kabi axloqiy fazilatlar bilan bezaydi. Axloqiy poklik va fazilat uchun komillikning asosi axloqiy yetuklikdir. U insonning komilligi uning sabr-toqat, shukronalik, mehr-oqibat, halollik kabi yuksak fazilatlariga bog‘liq deb biladi. Asarning asosiy g’oyasi komillik sirlari, Qur’oni karim ilmiga Rasululloh hadislariga amal qilishga undashdan iboratdir. Alisher Navoiy uchun tom manodagi komil inson Muhammad allayhissalomdir. “Mahbub ul-qulub”

Ruhiy kamolot: Tasavvufiy qarashlarga asoslangan holda, shoir komil insonni nafsi poklagan, qalbini tozalagan, ilohiy muhabbatga yetishgan shaxs sifatida tasvirlaydi.

2. Badiiy asarlarda komil inson obrazi .Navoiy o‘zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratgan: Farhod (“Farhod va Shirin”): Farhod mehnatsevar, fidoyi, vatanparvar, ilmli va jasur inson sifatida tasvirlanadi. U o‘zining mehnati va fidoyiligi bilan komillikka erishadi. Bir so‘z bilan aytganda, u insoniy o‘zligini yo‘qotmay, poklanish yo‘lida davom etadi. Poklanishga erishgan komil inson ayni paytda yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma’noda Farhod o‘zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir.Komil iymonga yetishish oson emas, nihoyatda qiyin, og‘ir.Hayotda komillikka erishgan har inson Farhoddir.

Majnun (“Layli va Majnun”): Majnun ishq yo‘lida o‘zini fido qilgan, ruhiy poklikka erishgan shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Uning ichtiroblari orqali insonning ruhiy kamolotga intilishi aks ettiriladi. "Layli va Majnun" dostonida Majnundagi komillik hislatlari. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida Majnun obrazini komil insonning yorqin timsoli sifatida tasvirlaydi. Majnun shunchaki oshiq emas, balki haqiqiy ma’nodagi komil insonning fazilatlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxsdir. Majnun – Navoiy asarlaridagi komil inson timsolining yorqin namunasidir. U sevgida sadoqatli, sabr-toqatli, ilmli, mehribon va ruhiy jihatdan yuksak martabaga yetgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Majnunning bu sifatlari nafaqat doston doirasida, balki umuman hayotda ham insonning komillikka intilish yo‘lidagi muhim qadriyatlarni aks ettiradi.

3. Pedagogik va ma’naviy ahamiyati.Navoiy asarlarida komil inson tarbiyasi muhim o‘rin tutadi. U insonning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga, xato va kamchiliklarini anglab, tuzatishga e’tibor beradi. Shoirning pedagogik qarashlari o‘zidan oldin o‘tgan mutafakkirlarning qarashlariga asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy ijodida komil inson konsepsiysi markaziy o‘rinni egallaydi. Shoir komil insonni ilmli, axloqiy yetuk, ruhiy pok, jamiyatga foydali shaxs sifatida tasvirlaydi. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, Navoiy komil inson timsoli orqali nafaqat shaxsiy fazilatlarni, balki jamiyat taraqqiyoti va

barqarorligi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy qadriyatlarni targ‘ib qiladi. U o‘z asarlari orqali yoshlarni ilm-fan, axloqiy poklik, xalqparvarlik va insoniy fazilatlarni egallashga undaydi. Komil inson g‘oyasi Navoiy ijodining zamonaviy ahamiyatini ham oshiradi, chunki har bir davrda bunday fazilatlar jamiyat uchun muhim bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Suxanberdiyeva, S. S. qizi. “Alisher Navoiy ijodida komil inson g‘oyasi”. Golden Brain, 2023.
2. Kurbonov, B. “Alisher Navoiy ‘Hayrat ul-abror’ dostonida komil inson tarbiyasi g‘oyalarining pedagogik ahamiyati”. Qo‘qon universiteti xabarnomasi.
3. “Insoniylik shartlari. Alisher Navoiy bu haqda nima deydi?”. Xalq so‘zi, 2023.
4. “Alisher Navoiy asarlarining tarbiyaviy ahamiyati”. Azkurs.org.
5. “Alisher Navoiyning gumanistik-pedagogik qarashlari”.
6. Abiturtest.uz.